

**ANALYSIS OF THE CULTURAL DIFFERENTIATION OF TEMPORAL METAPHORS AND THEIR FORMATION THROUGH CONCEPTUAL MODELS****Farangiz Khamrakułova***Independent researcher**Samarkand State Institute of Foreign Languages**Samarkand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Language and thought, linguistic relativity, temporal metaphors, conceptual metaphor, cognitive models, OMM, TMM, cultural cognition, time conceptualization.

Received: 05.12.25**Accepted:** 06.12.25**Published:** 07.12.25

Abstract: This article explores the interaction between language and thought, focusing particularly on how temporal metaphors shape cognitive processes and cultural perception. Drawing on the Sapir–Whorf Hypothesis, Conceptual Metaphor Theory (Lakoff & Johnson), and modern approaches in cognitive linguistics, the study compares temporal metaphors in English and Uzbek. It examines the cognitive mechanisms underlying the “Observer Moving Metaphor” and “Time Moving Metaphor” models, highlighting the role of reference points in spatial–temporal processing. The findings indicate that while temporal metaphors exhibit universal cognitive patterns, they also reflect culture-specific conceptualizations of time, influencing how speakers perceive and structure temporal experience.

TEMPORAL METAFORALARINING MADANIY FARQLANISHI VA KONSEPTUAL MODELLAR ORQALI SHAKLLANISHI TAHLILI**Farangiz Xamrakułova***SamDChTI mustaqil izlanuvchisi**Samarqand, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: Til va tafakkur, lingvistik nisbiylik, vaqt metaforalari, konseptual metafora, kognitiv model, OMM, TMM, madaniy farqlar, vaqt konseptualizatsiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, xususan, vaqt metaforalarining kognitiv jarayonlarga ta’siri, madaniy farqlanishi va konseptual modellar orqali shakllanishi tahlil qilinadi. Sapir–Uorf lingvistik nisbiylik

nazariyasi, Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi hamda kognitiv lingvistikaning zamonaviy yondashuvlari asosida ingliz va o'zbek tillaridagi vaqt metaforalari solishtiriladi. Tadqiqot "Observer Moving Metaphor" (kuzatuvchi harakatda) va "Time Moving Metaphor" (vaqt harakatda) modellarining lingvistik va kognitiv xususiyatlarini yoritadi hamda fazoviy-vaqt ma'lumotlarini qayta ishlashda referent nuqtalar sonining rolini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, vaqt metaforalarining universalligi bilan bir qatorda til va madaniyatga xos farqlanish mavjud bo'lib, ular insonning vaqtni idrok etish strategiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

АНАЛИЗ КУЛЬТУРНОЙ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ ВРЕМЕННЫХ МЕТАФОР И ИХ ФОРМИРОВАНИЯ ЧЕРЕЗ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ

Фарангис Хамракулова

Независимый соискатель

Самаркандского государственного института иностранных языков

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: язык и мышление, лингвистическая относительность, временные метафоры, концептуальная метафора, когнитивные модели, ОММ, ТММ, культурное познание, концептуализация времени.

Аннотация: В данной статье исследуется взаимодействие языка и мышления с особым акцентом на том, как временные метафоры формируют когнитивные процессы и культурное восприятие. Опираясь на гипотезу Сепира–Уорфа, теорию концептуальной метафоры (Дж. Лакофф и М. Джонсон) и современные подходы когнитивной лингвистики, в работе проводится сопоставительный анализ временных метафор в английском и узбекском языках. Рассматриваются когнитивные механизмы, лежащие в основе моделей «метафоры движущегося наблюдателя» (Observer Moving Metaphor) и «метафоры движущегося времени» (Time Moving Metaphor), с акцентом на роль точек отсчёта в пространственно-временной обработке информации. Полученные результаты показывают, что, несмотря на наличие универсальных когнитивных закономерностей, временные метафоры отражают культурно-специфические концептуализации времени, влияющие на

Til tafakkurga qay darajada ta'sir qilishi masalasi hanuz ilmiy bahs mavzusi bo'lib qolmoqda. Biroq, bu fikrni qo'llab-quvvatlovchi dalillar ham mavjud. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ranglarning turli soyalarini ifodalashda alohida atamalarga ega tillarda so'zlashuvchilar bunday ranglarni bir-biridan tezroq ajratishadi. Masalan, rus tilida ko'k rangning ikki turi uchun alohida so'zlar mavjud: голубой (och ko'k) va синий (to'q ko'k). Tadqiqot natijalariga ko'ra, rus tilida so'zlashuvchilar ingliz tilida so'zlashuvchilarga qaraganda ko'k rang soyalarini tezroq farqlaydilar, chunki ingliz tilida bu ranglarning barchasi uchun bitta "blue" so'zi ishlatiladi (Winawer va boshq., 2007).

Bu g'oya "Sapir-Uorf gipotezasi" nomi bilan mashhur bo'lib, odatda ikki shaklda izohlanadi. Birinchisi – lingvistik determinizm (kuchli talqin) bo'lib, u til inson tafakkuri va dunyoni idrok etish usullarini to'liq belgilaydi, deb hisoblaydi. Ya'ni agar bir tilda muayyan tushuncha uchun grammatik yoki leksik vosita bo'lmasa, bu til so'zlovchilari bu tushunchani to'liq anglay olmaydi (Sapir, 1929). Ikkinchisi – til nisbiyligi (yumshoqroq talqin) esa til fikrlashni shakllantiradi, lekin uni qat'iy belgilamaydi, deb ta'kidlaydi. Bu yondashuv tilda ayrim tushunchalar osonroq ifodalanishini, boshqalari esa kamroq e'tiborga olinishi mumkinligini bildiradi. Shu bois, bu yondashuv ilmiy doiralarda kengroq qabul qilingan (Lucy, 1992).

Til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik haqida ba'zi g'oyalar XVIII–XIX asrlarda ham ilgari surilgan. Masalan, Iogann Gottfrid Herder (1744–1803) o'zining Tilning kelib chiqishi to'g'risida risolasida til inson tafakkuri va madaniy o'zligining ajralmas qismi ekanini ta'kidlagan. Uning fikricha, har bir til o'ziga xos dunyoqarashni ifoda etadi. Vilgelm fon Humboldt (1767–1835) ham tilni faqat aloqa vositasi emas, balki fikrni shakllantiruvchi jarayon deb bilgan. U "Weltanschauung" (dunyoqarash) tushunchasini kiritgan. Shuningdek, Ernst Cassirer (1874–1945) ham tilda inson tafakkurini shakllantirishdagi ramziy rolni o'rganib, insonni "ramziy hayvon" deb ta'riflagan. Uning fikricha, inson til, san'at, afsona va ilm kabi ramziy tizimlar orqali dunyoni tushunadi. Tildagi ramzlar orqali inson o'z tajribasini tartiblaydi, talqin qiladi va shu tarzda o'z realligini yaratadi (Cassirer, 2020).

Tilning so'z turkumlari ham tafakkurga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, grammatik jinsga ega tillarda so'zning jinsi unga beriladigan sifatlarni ham belgilaydi. Nemis tilida "ko'prik" (die Brücke) so'zi ayol jinsida, ispan tilidagi "ko'prik" (el puente) esa erkak jinsida. Shu sababli, nemis so'zlovchilari ko'prikni "go'zal", "nazokatli" deb ta'riflashga moyil bo'lsalar, ispan so'zlovchilari uni "kuchli", "mustahkam" sifatlari bilan ifodalashlari ehtimoli yuqoriroq (Boroditsky va boshq., 2003).

Xuddi shunday, fazoviy yo‘nalish tizimi kardinal yo‘nalishlarga asoslangan tillarda so‘zlashuvchilar, masalan, Avstraliya aborigen tillari yoki Yava tilida so‘zlashuvchilar, atrof-muhitdan qat’i nazar, juda aniq orientatsiya qobiliyatiga ega bo‘ladilar (Levinson, 2003).

Biroq, Sapir–Uorf gipotezasi tanqidlarsiz emas. Ko‘plab kognitiv olimlar inson tafakkuri asosan universalligini va til uni aks ettirishini, lekin aniqlamasligini ta’kidlaydilar. Pinker (1994) fikricha, til inson miyasining tabiiy qobiliyatidir, ya’ni madaniyat tomonidan shakllantirilgan emas, balki genetik tarzda ongimizga singdirilgan “instinkt”dir

Ko‘pchilik uchun metaforalar tilda, ayniqsa badiiy matnlarda, faqatgina bezak vositasi sifatida qabul qilinadi. Biroq, so‘nggi o‘n yilliklarda olib borilgan tadqiqotlar metaforalar inson tafakkurida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Lakoff va Johnson (1980) ta’kidlaganidek, metafora tilning bezakli unsuri emas, balki fikrlashning asosiy shaklidir. Ular insonlarning dunyoni qanday idrok etishi, talqin qilishi va muayyan vaziyatlarda qanday harakat qilishiga ta’sir qiladi. Masalan, ingliz tilidagi “time is money” (“vaqt bu pul”) metaforasi bu hodisani yaqqol namoyon etadi. Vaqtga iqtisodiy qiymat berish orqali, bu metafora nafaqat vaqt haqida ishlatiladigan tilda, balki uni boshqarish usulida ham namoyon bo‘ladi. Ingliz tilidagi borrow time, invest time, buy time, spend time va waste time kabi ko‘plab iboralar vaqtni iqtisodiy nuqtai nazardan idrok etish qanday qilib qarorlar va xatti-harakatlarga ta’sir qilishini ko‘rsatadi (Lakoff & Johnson, 1980).

Biroq, vaqtni tovar sifatida tasvirlash barcha madaniyatlarda universal emas. Masalan, indonez tilidagi jam karet (“rezina vaqt”) iborasi vaqtga yanada erkin va bo‘sh munosabatni bildiradi (Magnis-Suseno, 1997). Bu misol vaqt haqidagi madaniy idroklar turlicha bo‘lishini ko‘rsatadi. Bunday lingvistik farqlar turli madaniyatlarning o‘z hayotiy tajribalarini metaforalar orqali ifodalashini, bu esa ularning kognitiv tafakkur tizimlariga ham ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Til tafakkurga ta’sir qiladi degan g‘oya yangilik emas. XX asr boshlarida amerikalik antropolog-lingvist Edvard Sapir va uning shogirdi Benjamin Li Uorf shunga o‘xshash fikrlarni ilgari surganlar. (Darvoqe, ulardan oldin ham bu masala ustida fikr yuritgan mutafakkirlar mavjud edi). Har ikkisi ham til nafaqat fikrlarni ifodalovchi vosita, balki kognitiv jarayonlarni shakllantiruvchi faol omil ekanini ta’kidlagan (Whorf, 1956).

Ingliz va o‘zbek tillarida taqqoslashi

Konseptual metafora turi	Ingliz tilida misol	O‘zbek tilida misol	Izoh
Vaqt = Pul	spend time	vaqt sarf qilmoq	Ikkala tilda ham vaqt iqtisodiy resurs sifatida ko‘riladi
Vaqt = Oqim	time flows	vaqt oqadi	Umuminsoniy, universal metafora.
Kelajak oldinda	future ahead	oldinda yaxshi kunlar	Har ikkala tilda gorizontal vaqt metaforasi mavjud

Vaqt keladi	time will come	vaqt keladi	Vaqt agent sifatida
Muddat yaqinlashadi	deadline is approaching	muddat yaqinlashyapti	Harakat metaforasi bir xil ishlatiladi.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki ingliz va o'zbek tillarida vaqt metaforalari ko'p jihatdan universal bo'lib, insonning tanaviy tajribasi asosida shakllanadi. Shuningdek ingliz tilida vaqtning "pulga teng resurs" sifatida ko'rilishi juda kuchli. O'zbek tilida vaqt ko'proq oqim, qadriyat, hayotning bosqichi sifatida metaforalanadi. Har ikki tilda ham vaqtning "oldinga harakat" modelida konseptuallashtirish ustun.

Metaforalar odamlarning vaqtning o'tishini qanday anglashlari va konseptuallashtirishlari haqida muhim ma'lumot beradi hamda tafakkurni shakllantiradi. Shu sababli temporal (vaqtga oid) metaforalar insonning kundalik nutqida chuqur ildiz otgan va muntazam qo'llaniladi. Odamlar vaqtning asosan ikki turdagi metafora orqali konseptuallashtiradi: birinchisida kuzatuvchi harakatlanadi — Observer Moving Metaphor, ikkinchisida esa vaqt harakatlanadi – Time Moving Metaphor. "Observer Moving Metaphor" modeli bo'yicha vaqt o'zgarish landshaftga o'xshaydi va kuzatuvchi kelajak voqealari sari harakatlanadi. Bunda kuzatuvchining faol roli asosiy o'ringa chiqadi: u vaqt chizig'ida o'tmishdan kelajakka qarab harakat qiladi. Shuning uchun "Observer Moving Metaphor" nuqtayi nazarida o'tmish — kuzatuvchining orqasida, kelajak esa uning oldida joylashgan. Masalan, "Biz yil oxiriga yaqinlashyapmiz" gapida kuzatuvchi o'tmishdan kelajak tomon (yil oxiri tomon) harakatlanayotgani tasvirlanadi.

Aksincha, TMM ("Time-Moving Metaphor" — Vaqt harakatda) modelida kuzatuvchining o'rni o'zgarmaydi, ya'ni u bir joyda turadi. Vaqt esa daryo kabi oqadi, biroq orqaga — kelajakdan hozirgi paytga, hozirgi paytdan esa o'tmishga qarab oqadi. Bu nuqtai nazardan, kuzatuvchi passiv bo'ladi va vaqt unga tomon oqadi: kelajakdagi voqealarni asta-sekin yaqinlashtiradi va oxir-oqibat ular kuzatuvchidan o'tib ketadi. Masalan, "yil oxiri yaqinlashmoqda" degan jumlada kuzatuvchi joyidan siljimasdan turibdi, vaqt oqimi esa yil oxirini unga tomon yaqinlashtirmoqda — u kelajak nuqtasidan o'tib, o'tmishga qarab siljiydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu ikki konseptual model o'rtasidagi farq faqat til boyligi yoki til qurilishida emas, balki kognitiv jarayonda ham namoyon bo'ladi. Bir modeldan ikkinchisiga keskin o'tish fazoviy-vaqt ma'lumotlarini qayta ishlashda sezilarli kechikishni yuzaga keltiradi. Bu esa "Observer Moving Metaphor" va "Time-Moving Metaphor" tizimlari faqat kuzatuvchi-vaqt munosabatidagi farq bilan emas, balki kognitiv darajada ikki mustaqil tizim sifatida ishlashini anglatadi.

Bundan tashqari, "Observer Moving Metaphor" va "Time-Moving Metaphor" o'rtasida keskin almashish vaqt-makon ma'lumotlarini qayta ishlashdagi qo'shimcha kognitiv yuklamaga

bog‘liq bo‘lib, bu farq ko‘pincha qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan referent nuqtalar soni bilan izohlanadi (Gentner va boshq., 2002).

“Observer Moving Metaphor” modelida atigi ikki referent nuqta mavjud:

1. vaqt bo‘ylab harakatlanayotganini tasavvur qilgan kuzatuvchi,
2. kelajakda joylashgan voqea.

“Time-Moving Metaphor” modelida esa ba‘zan uchta referent nuqta ishtirok etishi mumkin:

1. joyida turgan kuzatuvchi,
2. unga tomon yaqinlashayotgan kelajak voqeasi,
3. boshqa bir referent nuqta — o‘tmish yoki hozirgi voqea.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boroditsky, Lera. “How Languages Construct Time.” *Space, Time and Number in the Brain*, edited by Stanislas Dehaene and Elizabeth Brannon, Academic Press, 2011, pp. 333–341.
2. Degroot, Véronique. *Candi, Space and Landscape: A Study on the Distribution, Orientation and Spatial Organization of Central Javanese Temple Remains*. Leiden UP, 2009.
3. Gentner, Dedre, et al. “As Time Goes By: Evidence for Two Systems in Processing Space–Time Metaphors.” *Language and Cognitive Processes*, vol. 17, no. 5, 2002, pp. 537–565.
4. Herder, Johann Gottfried. *Essay on the Origin of Language*. U of Chicago P, 2002.
5. Humboldt, Wilhelm von. *On Language: The Diversity of Human Language and Its Influence on the Mental Development of Mankind*. Cambridge UP, 1999.
6. Lakoff, George, and Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. U of Chicago P, 1980.
7. Langacker, Ronald W. *Foundations of Cognitive Grammar*. Vol. 1: *Theoretical Prerequisites*. Stanford UP, 1987.
8. Sapir, Edward. “The Status of Linguistics as a Science.” *Language*, vol. 5, no. 4, 1929, pp. 207–214.